

BANK AKTIVLARI

Xojibekova Zilola Shavkat qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Bank hisobi va audit kafedrası
xojibekovazilola912@gmail.com
+998977747441

Annotatsiya:

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi zaruriy shartlaridan biri bu - bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishishi hisoblanadi. Maqolada tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini oshirish samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlari: bank aktivlari, tijorat banklari, daromad, mulkchilik, kredit.

БАНКОВСКИЕ АКТИВЫ

Хаджибекова Зилола Шавкатовна
Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра банковского учета и аудита
xojibekovazilola912@gmail.com
+998977747441

Аннотация:

Одной из предпосылок обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков является достижение стабильного уровня доходности банковских активов. В статье рассматривается эффективность повышения рентабельности активов коммерческих банков. Ключевые слова: банковские активы, коммерческие банки, доход, собственность, кредит.

Ключевые слова: банковские активы, коммерческие банки, доходы, собственность, кредит.

BANK ASSETS

Khojibekova Zilola Shavkat daughter
Tashkent State University of Economics
Department of Bank account and audit
xojibekovazilola912@gmail.com
+998977747441

Abstract:

One of the primary prerequisites for ensuring the financial stability of commercial banks is the achievement of a stable level of profitability of bank assets. The article describes the effectiveness of increasing the profitability of commercial banks' assets.

Key words: bank assets, commercial banks, income, ownership, credit.

Kirish

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdorining ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar aktiv operatsiyalari tarkibida yuqori salmoqqa ega bo'lgan kredit operatsiyalarini doimiy kuzatib borish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hukumatimiz tomonidan bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki bank sektori mamlakat moliyaviy barqarorligining muhim jihati hisoblanadi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining bank sektori uchun so'nggi o'n yil aholi va korxonalarga bank xizmatlarini taqdim etishning jadal o'sishi va kengayishi yillari bo'ldi.

Hozirgi kunda banklar iqtisodiyotda, xususan dunyoning ko'plab mamlakatlarining moliya tizimlarida katta rol o'ynaydi. Mablag'larning katta qismi banklar orqali yo'naltiriladi va bu banklarni eng muhim moliyaviy institutlardan biriga aylantiradi. Banklarning iqtisodiyotdagi muqarrar roli tartibga solish va nazoratning maxsus shakllarini, shuningdek o'zlarining faoliyatini tekshirishni talab qiladi.

Daromadlilik banklar faoliyatining keng tarqalgan ko'rsatkichlaridan biridir. Shu jihatdan, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi zaruriy shartlaridan biri bu - bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishishi hisoblanadi. Umuman olganda tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini oshirish bilan bog'liq muammolarning mavjudligi, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Bizga ma'lumki, tijorat banklarining mablag'larni jalb qilish qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, banklar uchun mablag'larni zayomlar shaklida yo'naltirish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Bu shuni anglatadiki, bankning daromad, foyda olish ehtimoli oshadi. Ushbu holatda banklarning daromadlilikgi aktivlarning yuqoriligi yordamida aniqlanadi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirishga qaratilgan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan va o'z resurslari

hisobidan xorijiy valyutani tegishli qoidalarga rioya qilgan holda erkin sotish tizimini joriy qilish belgilab olingan.

Harakatlar strategiyasining 3-ustuvor yo‘nalishida "... bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investisiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish” belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, ilmiy xulosalarni shakllantirish aktivlarning amaldagi tarkibini ularning likvidliligi, daromadliligi va riskliligi jihatidan baholashni taqozo etadi. O.Sattarov o‘z ilmiy maqolasida shunday deb ta’kidlagan – “Banklar rentabelligini oshirib borish uning barqarorligini ta‘minlashda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari yoki bank tizimi aktivlari ko‘rsatkichlarini doimiy tahlil etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunki aynan ushbu ko‘rsatkich orqali bank risklarini baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Aktivlarni tahlil etish natijasida banklarning kredit riski, foiz riski, likvidlik riski, operatsion risk hamda bank foydalilik darajasiga ta’sir etuvchi har qanday risklarini baholash imkoni paydo bo‘ladi”. Quyidagi ma’lumotlar orqali respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibiga baho berishimiz mumkin.

Banklarning umumiy kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investision faollikni rag‘batlantirishni ichki manbalar hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga xizmat qilmoqda. Ayni paytda bizning mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchilar doiralarida “muammoli aktiv” tushunchasi avvaliga nisbatan ancha ko‘proq qo‘llanilmoqda va bahs munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu albatta, bejiz emas, chunki bugungi kunda respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushi ancha yuqori foizni tashkil etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda muammoli aktivlarga bir qancha ta’riflar berilgan.

Ayrim adabiyotlarda, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo‘lgan kredit qo‘yilmalar – bu muammoli aktivlar shakliga kirgan qo‘yilmalardir deb ta’riflansa, ayrim adabiyotlarda muammoli aktivlar deganda, ob’ekti, sub’ekti va ta’minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan kredit deya ta’rif berilgan. Shuningdek, agar berilgan kredit muammoli taminotga ega bo‘lsa va ushbu ta’minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo‘lsa, bu holda ushbu kredit muammoli aktiv hisoblanadi, substandart va undan past tasniflanuvchi kreditlar muammoli aktivlar toifasiga kiradi.

Muammoli aktiv deganda, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” kreditlar sifatida tasniflangan kreditlar tushuniladi. O‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, muammoli aktivlar kredit risklarining amalda yaqqol namoyon bo‘lishining natijasidir, ya’ni kredit risklarini

to'g'ri boshqara olmaslik oqibati bo'lib hisoblanadi. Demak, "muammoli aktiv" tushunchasi "kredit risklari" kategoriyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun muammoli aktivlarning mohiyatini ochib berishda kredit risklarining iqtisodiy mazmuniga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi va biz qo'yilgan maqsadga erishishimizga yordam beradi.

Umuman, muammoli aktivlarning kelib chiqishi faqatgina kredit riskiga bog'liq bo'lmaydi. Zero, valyuta riski, bozor riski, foiz stavkalarining o'zgarishi riski va boshqa qator risklarining mavjudligi hamda ularni to'g'ri baholay olmaslik muammoli aktivlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi. Muammoli aktivlarning iqtisodiy mazmunini tadqiq etishda risklarning o'zni va ta'siri asos sifatida ishtirok etadi.

Bank menejmenti sohasida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan amerikalik mutaxassis Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli aktivlar turkumiga o'tishini anglatadi. Muammoli aktivlar birdaniga sodir bo'lmasdan uning elementlari kreditlash jarayonida asta-sekin yuzaga kela boshlaydi. Muammoli aktivlar doimiy monitoring olib borilmasligi natijasida ham paydo bo'ladi. Monitoring jarayonida qarzdorning buxgalteriya hisobotlarida moliyaviy kamchiliklar aniqlangandan so'ng, bank xodimi albatta korxonaga tashrif buyurishi (mijoz ofisiga) kerak.

Kreditdan unumli foydalanish joylarda, korxona va tashkilotlarda, qoida bo'yicha, har chorakda tekshirilishi kerak. Kreditlash jarayonida yo'l qo'yilgan xato bank kredit siyosatining noto'g'ri tuzilganligidan dalolat beradi. Muammoli aktiv asosan kredit portfeli tarkibidagi kreditlarning foizlari bilan qaytarishda imtiyozli davrning ko'p berilishida kuzatilmoqda. Shuningdek kredit monitoringida doimiy nazoratning olib borilmasligi va uning natijasida kredit va unga to'lanadigan foizlarni vaqtida to'lanmasligi, oxiroqibatda mijozning kreditorlik yukini oshib ketishi va uni to'lash bo'yicha moliyaviy ahvolining yomonlashuvigv olib kelmoqda.

Muammoli aktivlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, banklarning muammoli aktivlarini yuzaga kelishida ichki omillari bo'yicha 67% yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Bu ko'rsatkich tashqi omillar bo'yicha bor-yo'g'i 33% ni tashkil etadi.

Tijorat banklari amaliyotida muammoli aktivlarni yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin: a) moliyaviy omillar: to'lovlarni kechiktirish; moliyaviy hisobotlarni taqdim etmaslik; mijozning debitorlik talablarini yashirish; soliq to'lovlarni yashirish; debitorlik talablarini muddatini uzoq qilib ko'rsatish; b) informatsion omillar: moliyaviy hisobotlarni kechiktirib yetkazish; moliyaviy hisobotlarni noto'g'ri ko'rsatish; d) tashkiliy omillar: mutaxasislarni noto'g'ri tanlash; hisob va hisobot metodlarini o'zgartirish.

Xulosa. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Tijorat banklari o'zlarining mustaqilligini ta'minlashi, ichki manbalar hisobidan kapitalni ko'paytirishga, asosan, bank aktivlarini

barqarorligini ta'minlashga va foyda olishga alohida e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq. Yakunda ularning moliyaviy barqarorligini oshishiga va mustahkamlashishigi erishish mumkin bo'ladi. Qaysi bankning moliyaviy barqarorligi yuqori bo'lsa, o'sha bankning kreditlash salohiyati kengayib, rentabellik darajasi ham oshib boradi.

Muammoli aktivlar bilan ishlashda kreditlash jarayonida xatoga yo'l qo'ymaslik, qarz oluvchining moliyaviy holatini to'liq va aniq tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli aktivlarni yuzaga kelishini oldini oladigan samarali ko'rsatkichlarni amaliyotga joriy etish, garovni rasmiylashtirishda avvalo, garovni turli xillashtirish va notarial tasdiqlashda garovni kimga tegishli bo'lishini aniqlashtirish lozim. Kredit jarayonini boshqarish va monitoringini uzluksiz amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Egamberdiyev E. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: 2005., 256
2. Qobilov SH R. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: 2013.,78
3. Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J. Marketing. O'quv qo'llanma. – T.: 2009 ., 236
4. Спицин И.О. Банковский маркетинг. – Тернополь: 2013.,126
5. Umarov A. Z., Asrarova M.,B. Objectives of the provision of financial stability of commercial banks. International Finance and Accounting 2017, vol.3
6. Sattarov O.B. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash: nazariy va amaliy jihatlar. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3 2018
7. Zakhirov, M. M. Capital efficiency (return on equity) in banks and risks. International Finance and Accounting 2017, vol.3
8. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон. www.lex.uz
9. www.cbu.uz Monetar siyosatning 2017-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.